Ishlab chiqarilayotgan biopreparatlarni amaliyotga tadbiq qilish

O’zbekiston Respublikasi Fanlar akademiyasi Mikrobiologiya institutida Qishloq xo’jaligi vaziri J.Xodjayev, Innovatsion rivojlanish vaziri, akad. I.Abduraxmanov bilan uchrashuv bo’lib o’tdi.

Uchrashuvda O’zR Prezidenti Sh.Mirziyoyevning Oliy Majlisga Murojaatnomasi hamda 2020-yil 31-yanvar kuni Davlat geologiya va mineral resurslar qo’mitasidagi olimlar, yosh tadqiqotchilar, ilmiy-tadqiqot muassasalari rahbarlari va ishlab chiqarish sektori vakillari bilan uchrashuvida belgilab berilgan vazifalar ijrosini ta’minlash maqsadida O’zR FA Mikrobiologiya institutining Qishloq xo’jaligi vazirligi, Innovatsion rivojlanish vazirligi bilan birgalikda amalga oshiriladigan ishlari, takliflar va muammolarni hal etish masalalari ko’rildi.

Uchrashuv yakunida O’zR FA Mikrobiologiya instituti hamda Qishloq xo’jaligi vazirligi o’rtasida “Yo’l xaritasi” tasdiqlandi. O’zbekistonning turli hududlarida soya o’simligini yetishtirish bo’yicha O’zR FA Mikrobiologiya instituti va Don va dukkakli ekinlar ilmiy-tadqiqot instituti bilan birgalikda Mega loyihani amalga oshirish zarur ekanligi ma’qullandi. Dunaliella salina mikrosuvo’tlarini o’stirish uchun kichik masshtabdagi plantatsiyalar qurish va ulardan tijorat mahsulotlari olish texnologiyalarini ishlab chiqish bo’yicha tijorat rejasi tasdiqlandi va Qishloq xo’jaligi vazirligi yordamida amalga oshirilishi belgilandi. O’zR FA Mikrobiologiya institutida ishlab chiqarilayotgan biopreparatlarni amaliyotga tadbiq qilish uchun ularni qo’llash mexanizmi, natijasi, hajmi va narxi haqida ma’lumotlar Qishloq xo’jaligi vazirligiga topshirildi.